



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

O'ZBEKİSTON YOSHLARIĞA BAYRAM TABRIGI

Qadrli o'g'il-qizlarim!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning tim-solingizda butun O'zbekiston yoshlari ni mamlakatimizda keng nishonlanayotgan qutlug' ayyom – Yoshlar kuni bilan chin qalbimdan muborakbos etaman.

Ushbu bayramni sizlar bilan birgalikda katta shodu xurramlik bilan o'tkazayotgan ota-onalarinigiz, ustoz-murabbiylaringizni, ko'p millati butun xalqimizni samimi yutlab, barchangizga o'zimning yuksak hurmat-ehtiromi va egzu tilaklarimni bildiraman.

Albatta, mana shunday quvchli ayyom yurtimiz kelajagi, umid va ishonchimiz ramzi bo'lgan azmu shi-jotli farzandlarimiz timsolda Vatanimiz naqadar ulkan imkoniyatlarga ega ekanini yanada chuqur his etamiz.

Bugungi kunda muktab, kollej, texnikum va oliygochlarda bilim olayotgan, o'z shaxsiy ishini olib, tad-birkorlik bilan shug'ullanayotgan, Qurolli Kuchlarimiz saflarida yigitlik burchini sharaf bilan ado etayotgan, ishlab chiqarish, qurilish, ilm-fan, ta'lif, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalari, zamonaliv IT-tehnologiyalari yo'nalişlariga dadil kirib borayotgan, katta orzu-umidlar bilan yashayotgan 18 milliondan ziyod o'g'il-qizlarimiz – bizning bebabu boyligimiz, oltin zaxiramizdir.

"Yangi O'zbekiston bonyodkor bo'lamani!", "Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa qo'shaman!", degan yuksak maqsadlar farzandlarimiz qalbidan chuqur joy olib, ularning hayoti va faoliyati mazmuniga aylanib borayotgani bilan har qancha faxlansak, arzysi.

Aziz yoshlari!

Navqiron avlodimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash, o'g'il-qizlarimizning bilim olishi, mehnat qilishi, o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yogba chiqarishi uchun barcha sharoitlarni yaratish so'nggi yillarda O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani va bu borada ulkan ishlar amalga oshirilayot-gani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

O'tgan qisqa davrda ushbu yo'nalişda 100 dan ortiq konun hujyatlar qabul qilinib, izhil amalga oshirilayot-gani buni yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyamizda yosh avlodning huquq va manfaatlarani aniq moddalar bilan muhrab qo'yilgani, hech shubhatsiz, bu boradagi huquqiy bazani yanada kengaytirish, amaliy ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish imkonini bermoqda.

Shu o'rinda yangi tahrirdagi Asosiy konunimiz loyihasini muhokama etish va umumxalq referendumi orqali qabul qilishda yoshlari alohida faollik ko'rsatganini minnatdorlik bilan ta'kidlab o'tmoqchiman. Bu esa o'g'il-qizlarimizning Vatanimiz taqdiri va kelajagiga yuksak daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotgani, mamlakatimizdagisi siyosiy-i-jitmoi jarayonlarga yangicha ruh va mazmun olib kirayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda bunday faol munosabat butun xalqimiz qatori yoshlari bilan ham doimiy muloqotni yo'iga qo'yib, fikr va istaklarini eshitayotganimiz, barcha dastur va rejalarimizni amalga oshirishda o'g'il-qizlarimizni keng jalb etib, ularga ishonch bildirayotganimiz natijasi, desak, to'g'ri bo'la!

Shu ma'noda, o'tgan davrda yoshlar bilan ishslash bo'yicha mutlaqo yangi – vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. Yurtimizda barcha mahallalarda yoshlardan yetakchisi lavozimi joriy etilib, bu vazifaga tashkilotchilik qobiliyatiga ega, tashabbuskor yigit-qizlar tan-

lab olindi. Mahallada bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi.

"Yoshlardafar" tizimi yo'iga qo'yilib, so'nggi ikki yilda 798 ming nafarga yaqin yoshlarga qariyb 1 trillion so'mlik yordamlar ko'rsatildi. Jumladan, 53 ming nafar ehtiyojmand oiliga mansub talabaga o'qish uchun kontrakt pullari to'lab berildi.

Oliy ta'lim muassasalari soni salkam uch marta ko'payib, 210 taga, qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizga yetgani zamonaliv ilm va kasb sohalari ni egallashda o'g'il-qizlarimiz uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

OXIRIGA UCH YILNING O'ZIDA 250 MING NAFAR YOSHGA 6 TRILLION SO'MDAN ZIYOD IMTIYOZLI KREDITLAR AJRATILDI. MAM-LAKATIMIZ BO'YICHA 210 TA "YOSHLAR SANOAT VA TADBIRKORLIK ZONALARI" TASH-KIL ETILIB, 4 TRILLION SO'MLIK 2,5 MINGTA LOYIHA AMALGA OSHIRILDI. NATIJADA, YOSH TADBIRKORLAR SONI 2 KARRA KO'PAYIB, 200 MINGDAN OSHDI.

BIZ NAFAQAT YOSHLARIMIZ, BALKI BUTUN JAMIYATIMIZ HAYOTINI TUBDAN O'ZGARTIRISHGA XIZMAT QILAYOTGAN ANA SHUNDAY EZGU ISHLARIMIZNI BUNDAN BUYON HAM IZHIL DAVOM ETТИRAMIZ. SHU BORADA YOSHLARIMIZNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB-QUVVATLASH, SIZ, AZIZLARNING SAHRIYATI VA IQTIDORINGIZNI RIVOJLANTIRISH VA RO'YOGBA CHIQARISH UCHUN IMKONIYAT VA SHAROITLARNI YANADA KENGAYTIRAMIZ.

Qadrli o'g'il-qizlarim!

Yurtimiz yoshlari yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarda dastlabki umidbaxsh tizimlarni qo'iga kiritayotgan albatta, barchamizni kursand qiladi.

O'zbekistonlik o'quvchilar o'tgan yili xalqaro fan olimpiyadalarida 7 ta oltin, 36 ta kumush va 38 ta bronza medalni qo'iga kiritildi.

Yosh sportchilarimiz esa xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatlari ishtirok etib, bu yil 247 ta oltin, 119 ta kumush, 110 ta bronza medalni qo'iga kiritildi.

Keyingi yillarda Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan ana shunday yoshlarning 758 nafari davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar.

Albatta, biz aziz farzandlarimizning orzu-intilishlari, ilg'or g'oya va tashabbuslarini ro'yogba chiqarish bo'yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirib, ularni yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqqamiz.

Ishonchim komil, jonajon Vatanimizga mehr va sadoqat bilan yashayotgan, ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta engallab, hozirgi murakkab zamondagi keskin raqobatga tayyor bo'lib voyaga yetayotgan yoshlari har qanday baland marrani egallashga qodir.

Siz, azizlarning bugungi yoshlari, baxt va nafosa ayyomi bilan yana bir bor chinch dildan tashkiblab, barchangizga sihat-salomatlilik, ulkan yutuq va omadlar tilayman.

Hech qachon unutmang, g'alaba va baxt – astoyil intilganniki!

Sizlarning yutug'ingiz – bu butun el-yurtimizning yutug'i.

Xalqimiz sizlarga ishonadi, sizlarga tayanadi, sizlardan kuch-g'ayrat, ruh va ilhom oladi.

O'z oldingizga ulug' maqsadlar qo'yib yashashdan aslo charchamang!

Yangi O'zbekistonim albatta, sizlar bilan, butun mamlakatimiz yoshlari bilan birga barpo etamiz.

Barchangizga bayram muborak

bo'lsin, qadrli o'g'il-qizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Z www.zarnews.uz F https://www.facebook.com/zarnews.uz T @zarnews_uz S https://twitter.com/zarnews_uz

2023-yil 1-iyul, shanba,

78 (23.799)-son



MEHR-MURUVVAT AYYOMI SIFATIDA NISHONLANDI

Davlatimiz rahbarining qaroriga ko'ra, 28-iyun kuni Qurbon hayitining birinchi kuni yurtimizda bayram sifatida keng nishonlandi.

shart-sharoit yaratildi.

Samarqand shahar "Namozgoh" masjidida o'qilgan hayat namozida viloyat hokimi E.Turdimov ishtirok etib, viloyat ahlini Qurbon hayiti bilan tabrikladidi.

Bayram arafasida hokimliklar, saxovatpesha kishilar tomonidan mahallalardagi ehtiyojmand oilalar, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va bemorlar holidan xabar olinib, ularga muruvvat yordamlari ko'rsatildi.

Bir oy davom etgan festivalda 320 dan ortiq tadbir, sport musobaqalari, intellektual o'yinlar, harbiy-vatanparvarlik loyihalari tashkil etilib, ularga 815 ming nafar yoshlarga qamrab olindi. Shuningdek, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan o'tkazilib kelinayotgan "Besh tashabbus olimpiadasi" va paralimpiadasining joriy yilgi mavsumida viloyat jamoasi respublika bosqichida faxrli birinchi o'rinni qo'iga kiritdi.

"YANGI O'ZBEKİSTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK!"



Oylik yakunida, ya'ni 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Samarqand shahridagi "Mo'jiza" amfiteatrida tantanali bayram tadbiri tashkil etildi.

Unda viloyat hokimi E.Turdimov davlatimiz rahbarining O'zbekiston yoshlari bayram tabrigini o'qib eshittirdi.

Tabrikda ta'kidlanishicha, o'zbekistonlik o'quvchilar o'tgan yili xalqaro fan olimpiyadalarida 7 ta oltin, 36 ta kumush va 38 ta bronza, yosh sportchilarimiz esa

xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatlari ishtirok etib, bu yil 247 ta oltin, 119 ta kumush, 110 ta bronza medalni qo'iga kiritgan.

Shuningdek, keyingi yillarda Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan ana shunday yoshlarning 758 nafari davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan.

Tadbir tanqili estrada xonalarida ishtirokida konsern dasturi bilan davom etdi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

MUKOFOTLAR MUBORAK!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning shu yil 29-iyunda qabul qilingan farmoniga ko'ra, Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimizning faol va tashabbuskor yosh avlod vakillaridan bir guruhi "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlandi. Ular orasida viloyatimizdan quydigilar bor:

Balikova Charos Norbek qizi – shashka bo'yicha O'zbekiston milliy paralimpiya terma jamoasi a'zosini;

Mahkamotosheva Marhabo Abdurahmon qizi – Samarqand davlat universitetining 2-bosqich talabasi;

Ikromova Taxmina Izatulloyeva – gimnastika bo'yicha Respublika olyi sport mahorati maktabining badiiy gimnastika bo'yicha sportchisi.

* * *

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning shu yil 29-iyunda qabul qilingan "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risidagi qaroriga ko'ra, o'zing bilim va qobiliyat, intiluvchanligi, tashabbuskorligi va samarali mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, Yangi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yanada oshirishga katta hissa qo'shib kelayotgan, yuksak ma'nnaviyatlari, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarash va yuqori sa-lohiyatiga ega yoshlari mukofotlardi.

Bu yil viloyatimizdan quydigilar ushbu mukofotga loyiq ko'ridi:

Zokirov Ruslan Olegovich – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi markazning haydovchi-qutqaruvchisi;

Isromov Sherbek Mahmud o'g'li – Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 1-bosqich talabasi.

"Mard o'g'lon" davlat mukofoti sovrindorlarining har biriga bazaviy hisoblash miqdorining 50 barvari miqdorida pul mukofoti beriladi.

TABRIKLAYMIZ!

Davlatimiz rahbarining shu yil 26-iyunda qabul qilingan "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi guruh muharriri Junaydulayeva O'g'iloy Inatullayevna "Do'stlk" ordeni bilan taqdirlandi.

Hamkasbimizni ushbu yuksak mukofot bilan tabriklaymiz!

Davlatimiz tarraqqiyotining hozirgi bosqichida demokratik huquqiy davlat barpo etish sari mamlakatni modernizatsiya qilish borasida bosqichma-bosqich tub islohotlar amalga oshirilmoqda.



KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVOR

Buning uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgan

Aslida demokratik davlatning eng muhim belgilari biri – jamiyat a'zolaringin qonun oldidagi tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanganligidir. Bu masala, ya'ni qonun ustuvorligi Bosh komisumizning qator moddalarida belgilab qo'yilgan. Misol uchun, Konstitutsiyaniing 15-moddasiga muvofigi, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'sziz tan olinadi. Binobarin, davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdar shaxslar, fuqarolik jamiyatini institutlari hamda fuqarolik Konstitutsiya va qonumlarga muvofigi ish yuritadilar.

Umuman, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaniing 15-moddasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida olyi yuridik kuchga egaligi, to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume tirof etilgan princip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligi, shuningdek, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyaniing 16-moddasiga ko'ra, birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning princip va normalariiga zid bo'lishi mumkin emas. Agarda birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo'lsa, u bekor qilinishi lozim.

O'z navbatida normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilish u qaysi bosqichda amalga oshirilishiga qarab bir nechta turlarga bo'linadi. Xususan, dastlabki nazorat. Bunda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari huquqiy ekspertiza o'tkaziladi.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga muvofigi, "Huquqiy ekspertiza jarayonida normativ-huquqiy hujjat loyihasining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, unga nisbatan yuqoriq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, yuridik-teknik jihatdan rasmiylashtirishning talabalariga muvofigligi, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjat loyihasida havola qiluvchi normalar qo'llanilishining asosligi hamda maqsadga muvofigligi tekshiriladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyi-halarining huquqiy ekspertizasi ishlab chiquvchining yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning yuridik xizmati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, uning hududiy bo'limalari va boshqa tashkilotlar tomonidan qonunchilikka muvofigi o'tkaziladi".

Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingandan keyingi nazorati amalga oshiruvchi asosiy subyektlardan biri - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.

Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va iyo etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofigligi to'g'risi-dagi ishlarni ko'radi. Mazkur vakolatni amalga oshirish orqali har bir hokimiyat tarmog'ining o'z vakolati doirasida ish yuritayotganligi, ularning hujjatlarida inson huquqlari va erkinliklari roya qilinligiga ham baho beradi hamda shu orqali huquqiy davlatning muhim sharti hisoblangan qonun ustuvorligi ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi.

Shu jihatdan, Asosiy qonunimiz normalarining ustuvorligini ta'minlash ko'jihatdan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi zimmasiga yuklangan desak, xato bo'lmaydi. Jumladan, Bosh qomusimizga muvofig, konstitutsiyaviy sudlov ishlarni yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili Oliy Majlis palatalari va davlat rahbariga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniyotning holati to'g'risida axborot taqdim etish belgilanganani bunga yorqin misol bo'la oladi.

Muhimi, fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanimib bo'lingan bo'lsa, sudda ko'rib chiqishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofigligi to'g'risidagi shikoyat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga muroja qilishga haqlidi.

Xulosa o'rnda aytish mumkinki, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar inson huquqi va manfaatlari asoslangan bo'lsa, shuningdek, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar barcha davlat organlari, mansabdar shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarisqa, qonun ustuvorligi o'zining to'liq ifodasini topadi.

Umidjon GIYAZOV,
O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudining
katta eksperti.

SURATGA KO'CHGAN OG'RIQLAR

Umrni oqar suvga mengzaydilar. Bu bejiz emas. Inson umri davomida katta dovonlardan o'tib, hayotning goh achchiq, zardobi, gohida sokin nuqtalarida toblanib boradi. Shunday paytlarda ba'zan beg'ubor bollaikkha qaytgisi, tuproq bosgan so'qmoqlarda oyoqyalang kezgisi ke-laveradi.

Yoshligimda Afrosiyob tepaliklarida ko'p bo'lganman.

Teshiktosh yonida shamolning uvlab, ajododlarimiz qismatini so'ylagantalarini eshitganman. Tepalikda turib, qo'lida nayzayu qilich tutib, "urho-ur" qilgan bobolalarim, dashti larzaga keltirib, ot choptirgan, tomirida ajododlarimiz qoni ko'pirgan To'maris, Biy bobosining o'g'i Alpomishga ibrat bo'lib, oriyat uchun Ko'kamanni kurashda yengib, ko'kragiga tizzasini bosgan jangovar Barchinoyni tasavvur qilganman. Toshlarda muhrlangan suratlarga qarab, soatlab o'ya tolaman.

Odatda biz bolalarimizni hali yosh degan tasavvur bilan balog'at yoshiga yetgunlari qadar avaylaymiz. Yana ham aniqroq ifoda qiladigan bo'lsak, ular biron-bir yushmani uddelay olmasa ham yoki biron-bir xato qilsa ham "bola-da", deb o'zimizni ovutamiz. Eng yomonli, bolalarimizning o'zlarini ham bunga ko'nikib qoladilar.

Bizning xalqimizdek bolajon va serfarzand xalq bo'limasa kerak. Boz ustiga, biz farzandlarimizni urf-odatlardan, qadriyatlarimizni humrat qilishga, san'at va adabiyotni sevishga o'rgatadigan xalqimiz. Barcha ma'naviy merozimiz ham bolalarga mehr ko'rsatishni targ'ib qiladi. Ammo bolani ortiqcha erkali, uni taltaytirib yubo-ramiz va oxir-oqibat kelajakda o'z o'rmini topolmasdan, qiyalib qilishiga sababchi bo'lamic. Ajododlarimiz insonga bolaligidanoq har bir ishni xayrli niyat bilan qilishni, har qanday yushmaning oxirini o'yashni, uning aju

savobini ham, mas'uliyatini ham hisobga olishni o'rgatadi.

Ta'kidlash o'rinniki, bugun mamlakatimizda ta'limga, yoshlar tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor davlatimizning bosh maqsadlaridan biri bo'lib turidi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, 30-iyun "Yoshlar kuni" debla e'lon qilinishi va bu borada juda keng ko'lamdagi amaliy ishlarni qilinayotganligi fikrimiz tasdig'i idir. Maktabbgacha ta'limdan boshlab, ta'limning barcha bosqichlarida qilinayotgan ishlar, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun yetarli sharoit yaratilishi, ularning bandigini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatining qo'llab-quvvatlanayotgan va boshga imtiyozlar allaqachon o'zining samarasini bermoqda. Va bu ishlar izchil davom ettilirilmoga.

Haqiqatda ijod namunalari dan biri bo'igan rasmlar ham milliy ma'naviyatimiz ko'zgusi. Ularda tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat uyg'unlashadi. Musavvir hayotni kuzatadi, boshqalar ko'zi ilg'amagan jihatlarni ko'ra oladi, o'z taffakkuri prizmasidan o'tkazgan hayotiy haqiqatlarini boricha qog'ozga tushiradi. Shu bois suratlar ma'nosini tushungan kishi hayajonga tushadi, hayratlanadi, umr atalmish ilohiy ne'matning har daqiqasi qadrli ekanligini anglaydi.

Bugun e'tiborligizni ruhiyatimga ta'sir qilgan bir rasmaga, aniqrog'i, olis bir qishloq-

ning chekka uyida yashab, oddiyigina maktabda ta'lim olib kelayotgan musavvir, zukko, iqtidorli o'quchimizning ijod mahsuliga qaratmoqchiman.

Yoshligidan musavvirligka mehi bilan ulg'aygan Dilnura Suvonova Zohidjon qizi dastlab oddiy daftarga tabiatning o'zini maftun qilgan lahzalarini chizishga urindi. Oylar davomida qilingan mashqlar tufayli tasvirlar ma'no kash eta boshladi. Ustozi Muzaffar Begmatov bergan tasvisiyalari, yo'l-yo'riqlar tufayli u chizgan rasmlarda ranglar tilga kirdi. Atrofdagilar uning musavvirlilik olamida o'z o'rinni topishga intilayotganini e'tirof eta boshladilar. Menda ham ilk bor u chizg'an rasmi ko'rganim-danoq ko'nglimming qat-qatida bir og'riq uyg'ondi, tasvirlab bo'limas tuyg'udan ruhiyatim bir qalqib tushti, beixitoy ko'zimga yosh keldi. Muallifning ota-onasiga va albatta, mohir ustoziga tasannolar aytdim. Chunki shu bitta qog'ozdag'i oddiy rasmga qarab, hayot deb atalmish bu ukran borliqda kishining o'z yo'lini qanday belgilab olishi, bunda ota-onasining farzandlari oldida qurib chetishga qilinayotgan ishlarni mazmunli qayqol ko'rish, his etish mumkin. Orqa fondagi tasvirda yaxshiliga qo'shamaydi, umr atalmish ilohiy ne'matning har daqiqasi qadrli ekanligini anglaydi.

Bugun e'tiborligizni ruhiyatimga ta'sir qilgan bir rasmaga, aniqrog'i, olis bir qishloq-

ning chekka uyida yashab, oddiyigina maktabda ta'lim olib kelayotgan musavvir, zukko, iqtidorli o'quchimizning ijod mahsuliga qaratmoqchiman.


soli bo'lgan kabutar va yovuzlik timsoli bo'lgan, yirtiqch qush – qarchig'ayning tasvirlanganligi, hatto bobo quyosh qiyofasining ko'rinish juda katta boy falsafiy ma'nolarga ishora qilayotgan-day. Ota-onalarning o'z ayshu ishratlarini o'yab, yengil-yelpi hayot kechirishlarining salbyi oqibatlari, majruh farzandlar va aksincha, ilmi, ma'rifatli oila farzandlarining baxtli chehralaridan ko'p narsalarni uqish, tafakkur qilish imkoniyati mujassam.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, shu iqtidori o'quvchimizning mahorati, ustozining mehnati, ota-onasining duolari samarasini bo'lgan hamda Yaponiyada bo'lib o'tgan xalqaro tanlova g'oliblikni qo'lga kiritib, yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan ushbu rasmga qarab soatlab to'xtamasdan gapirish, misollar keltirish, namuna qilib ko'rsatish mumkin.

Men ta'lim muassasalari, tashkilotlar rahbarlariga ushbu rasmni o'quchilarga, xodimlariga, oila a'zolari va yaqinlarimga va umuman, ko'pchilikka ko'rsatishlarini, muassasalar devorlariga osib qo'yishlarini, rasmga qarab turli insholar, esse va hikoyalari yozish bo'yicha tanlovar o'tkazishni tavsiya qilardim. Muallif va uning ustozi bilan ushrushuvlar o'tkazish yaxshi samara beradi deb o'yalyman. Zero, bunday iqtidolar har qadamimizda, har birimizing uyimizda, yonimizda bo'lishi mumkin. Faqat ularni vaqtida ko'ra bilsak, topsak va qo'llab-quvvatlasak, bas.

Biz farzandlarimizni bo'laligidan avalo odobli, yaxshi-yomonning, halol va harroming farqiga boradigan qilib aksinchi, aqlini taniganlaridan boshlab, ularga tozalik, tartib-intizom qoidalarni o'rgatib borsak, ilm-ma'rifat bersak, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizning ongu shuuriga singdirasak, ular har tomonloma yetuk, yuksak ma'naviyatli, barkamol avlod bo'lib ulg'ayishadi. Shundagina ular ona Vataniga, xalqimizga, ota-onasiga sad-qat bilan xizmat qilishadi.

Qayum SOBIROV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi.



BUXAFKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning yanvar-may holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 448,0 ming so'mni (2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 103,7 foizni) tashkil etdi.



Muddatidan oldin ovoz berish davom etmoqda

Shu yilning 9-iyul kuni mamlakatimizda muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tadi.

O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga ko'ra, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga ega.



Muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganida boshlanadi va saylovga uch kun qolganida tugallanadi. Muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish vaqt Markaziy saylov komissiyasi, viloyat, tuman, shahar saylov komissiyalari tomonidan belgilanadi va saylovchilarining, kuzatuvchilarining e'tiboriga ommaviy axborot vositalari orqali yetkaziladi.

Markaziy saylov komissiyasining shu yil 20-iyungi qarori bilan muddatidan oldin ovoz berish 2023-yil 28-iyunda boshlanib, 5-iyul kuni yakunlanishi belgilandi.

Saylov uchastkalarida muddatidan oldin ovoz berish ish kunlari soat 9:00 dan soat 18:00 ga qadar, dam olish va bayram kunlari soat 11:00 dan soat 17:00 ga qadar amalga oshiriladi.

Qurban hayiti munosabati bilan e'lon qilinagan dam olish kunlariida viloyatimizdagi 1112 ta saylov uchastkasi ham muddatidan oldin ovoz berish jarayonlari davom etmoqda.

Jumladan, Samarcand shahar Darg'om mahallasining 1425 nafray saylovchilarini ovoz beradigan 106-saylov uchastkasiida saylov kuni yashash joyida bo'lmaydigan fuqarolar kelib, muddatidan oldin ovoz berish bermoqda.

Abdullo Mahaddinov salomatligini tiklash maqsadida turmush o'trog'i bilan birga davalish uchun yaqin kunlarda safarga ketmochchi, ya'ni 9-iyul kuni saylov uchastkasiiga kelomaydi. Shu sababli otaxon turmush o'trog'i bilan birga saylov uchastkasiiga kelib, muddatidan oldin ovoz berdi.

– Saylovda har bir saylovchining ovozi juda muhim, – deydi A.Mahaddinov. – Qolaversa, davlat rahbarini saylav bizning konstitution huquqimiz, undan samarali foydalanishimiz kerak. Prezidentlikka nomzodlarining dasturlari haqida eshitdi, ularning maqsadlari bilan tanishdik. Va, kimga ovoz berish bo'yicha bir qarorga kelgandik. Saylov kuni bu yerda bo'lomasligimiz sababli muddatidan oldin ovoz berish imkoniyatidagi foydalandik.

Saylovda har bir saylovchining ovozi juda muhim, undan samarali foydalanishimiz kerak. Prezidentlikka nomzodlarining dasturlari haqida eshitdi, ularning maqsadlari bilan tanishdik. Va, kimga ovoz berish bo'yicha bir qarorga kelgandik. Saylov kuni bu yerda bo'lomasligimiz sababli muddatidan oldin ovoz berish imkoniyatidagi foydalandik.

Okrug saylov komissiyasi matbuot markazi.

Paxtachi tumanidagi "Abdullahay Do'stmurod Sultonovich" fermer xo'jaligi boshlig'i Zafar Abdullayev va "Sultonov Ibodulla" fermer xo'jaligi rahbari Laziz Abdullayev respublikamizda g'alla yetishtirishda dong'i ketgan g'alla - O'zbekiston qahramoni Do'stmurod Abdullayevning farzandlari. Ular otasidan g'alla yetishtirishda yerni tayyorlash, urug' tanlash, niholni oziqlantirish, agrotexnik ishlov berish kabi zarur bilimlarni o'rgandi. Hozirda ular boshchilik qilayotgan fermer xo



"TRASTBANK": ISHONCH BILAN YUZMA-YUZ



"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki "bank-mijoz uchun" tamoyili asosida samarali bank xizmatlarini ko'rsatib kelayotgan moliya muassasalaridan biri sanaladi.

Asosiy maqsadi bugungi kun talablariga mos faoliyat yuritish bo'lgan bank qisqa vaqt ichida mijozlar va hamkorlarning ishonchini qozona oldi. Bu jarayonda zamonaviy bank texnologiyalari, samarali tavakkalchilik menejment tizimi, xizmat ko'rsatishning yuqori sifat darajasiga asoslangan barqaror biznes faoliyatini yo'iga qo'ydi.

Bankning Samarcand filiali yuridik va jismoniy shaxslar barcha bank operasiyalari amalga oshirilishi uchun imkoniyatlardan yaratilgan. Jumladan, mijozlar milliy va xorijiy valyutada hisobvaraqlar oshish va yuritish, hisob-kitob va kassa xizmatlaridan foydalinish, kredit va lizing orqali faoliyatini rivojlantirish, "Internet-bank" tizimida hisob-kitob ishlarni yuritish imkoniyatlari ega.

Filialning bu kabi xizmatlaridan bugungi kunda 14 ming naftaga yaqin mijoz foydalanoqda. Ular orasida davlat korxonalar, kichik va xususiy tadbirdorlik subyektlari mavjud. Filial tarkibida 13 ta bank xizmatlari markazlari mavjud bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Markazi banki litsenziyasi ko'zda tutilgan bank xizmatlari ko'rsatib kelmoqda.

2023-yil boshidan bugungi kunga qadar filial tomonidan 600 dan ortiq jismoniy shaxslarga 60,75 milliard so'm avtokredit, 10 mingdan ortig'iqa 184,78 milliard so'm miqdorida mikroqarz mablag'i ajratildi.

MIZOZGA SIFATLI BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH - ASOSIY MEZON

"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki Samarcand filiali viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirdorlik, innovatsion g'oyalar va bonyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholi uchun munosib turmush sharotini yaratishga hissa

ga'shib kelmoqda. Jumladan, bank kreditlari orqali ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, yangi ish o'rinnari yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmogda. Bunda O'zbekiston Respublikasining "Xususiy bank va moliya instituti" hamda ular faoliyatining kafolatlarini to'g'risida"gi Qonun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bankning Samarqand filiali zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda ularning turini ko'paytirish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, bugungi kunda mijozlar moliya muassasasining "Internet-banking", "SMS-banking" va "Bank mijoz" kabi masofaviy bank xizmatlaridan foydalaniib kelmoqda. Xususan, "Internet-banking" xizmati mijozga o'zining bankdagi mablag'i dunyoning istalgan joyidan internet tarmog'i orqali boshqarish imkonini beradi. "SMS-banking" tizimidan foydalananuvchilar esa o'z hisobvaraqlari holati to'g'risida uyali aloqa telefonlari orqali doimiy ma'lumotga ega bo'ladilar.

Hozirgi kunda "Trastbank"ning Samarqand filiali tomonidan jismoniy shaxslar uchun qulay shartlar asosida va tezkorlik bilan avtokredit, mikroqarz, iste'mol krediti va bank plastik kartasiga ega bo'lgan mijozlar uchun overdraft kredit turlari ajratish yo'lgan qo'yilgan.

Shuningdek, "Trastbank" ish haqi doirasidagi bank kartasiga ega bo'lgan mijozlar dunyoning istalgan yeridan (xoh uuda, xoh bozorda, xoh safarida) "Onlayn mikroqarz" kreditidan foydalanshilari mumkin.

Mazkur mikroqarzni rasmiylashtirish uchun bank mijozidan faqatgina smartfon talab etiladi. Ya'nisi, mijoz o'z uyali aloqa vositasiga "TrustPay" ilovasini yuklab olishi hamda ilovadagi "Kreditlar" bo'limidan "Onlayn mikroqarzlar" oynasiga kirib, kerakli bo'lgan mijozdorda kredit rasmiylashtirish mumkin. Bank so'rovni tezkorlik bilan qabul qiladi hamda eng zarur paytlarda o'z mijozlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Bank mijozlari mablag'larini saqlash va ularni ko'paytirishda ham turli omonatlarni taklif etadi. Bu omonatlarga mablag'lar milliy va chet el valyutasi da qabul qilinishi yo'lgan qo'yilgan. Bankning milliy

valyutadagi muddatli omonatlardan mijoz bankka tashrif buyurgan holatda foydalansa, misol uchun, "Imkon-3"da yillik 14 foiz, "Imkon-6"da yillik 15 foiz, "Imkon-12"da yillik 16 foiz, "Farovon"da yillik 17 foiz, "Navro'z"da yillik 19 foiz, yu sharoitida o'zining mobil telefoni orqali "Online Kelajak"da yillik 16 foiz, "Online Farovon"da yillik 17 foiz, "Navro'z"da yillik 20 foiz mablag' olish imkoniyatlari yaratilgan.

Bankning xorijiy valyutadagi muddatli omonatlardan biri bugungi kunda "Qulay sarmoya" yillik 7,5% li eng baland xorijiy valyuta omonati hisoblanadi.

Shuningdek, "Trastbank" dan pul jo'natmasini jo'natish yuqori himoya darajasida har qanday masofaga sanoqli daqiqalar ichida va naqd pulda faqatgina ko'rsatilgan shaxsga berilishi kafolatlangan holda amalga oshiriladi.

Bankning Samarqand filiali mijozlari bugungi kunda "Contact", "Money Gram", "Western Union", "Zolotaya korona", "Unistream", "UPT", "Asia Express" kabi xalqaro pul o'tkazmalaridan foydalaniib kelmoqda. Bundan tashqari, bank kartasiga ega mijozlar "Contact" va "Unistream" tizimi orqali onlaysiz xalqaro pul o'tkazmalarini qabul qilib olishlari mumkin.

Bank kartalari uyda turib pullarni boshqarishning eng qulay usullaridan biridir. Shuningdek, "Trastbank" mijozlari bank rasmisi veb sayti orqali (www.trustbank.uz) UZCARD, MASTERCARD, VISA va HUMO kartalar haqida onlaysiz ma'lumot olishi mumkin.

"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki Samarqand filiali aholi turmush sharotini yaxshilash, istiqbolli loyihalarni ro'yobga chiqarish, mijozlar talabini qondirish, tadbirdorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lda barcha imkoniyatlarni ishga solishga tayyor. Bank izlanuvchan va intiluvchan tadbirdorlarni doimo qo'llab-quvvatlaydi.

Darvoqe, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari haqida ma'lumot olishni istagan tadbirdorlik subyektlari va fuqarolar filialning +99855-701-08-01 telefon raqami

ga va +99855-701-69-62 raqamli "Ishonch telefoni"ga murojaat qilishlari mumkin.

"TRASTBANK": MUHIM YO'NALISHLARDAGI SALMOQLI NATIJALAR

Mamlakatimiz moliya-bank tizimida olib borilayotgan islohotlar tufayli tijorat banklari aholi, ayniqsa, ishbilarmonlarning yaqin hamkor va ko'makhsisiga aylab ulgurdib. Bank mablag'laridan samarali foydalaniib, tadbirdorlik faoliyatini yo'lg'a qo'ygan hamda bozorlarini to'kinligi, hududlarimiz eksport salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotgan izlanuvchan, tashabbuskor yurtdoshlarimizning muvaffaqiyatlarini kuzatib, bunga yana bir bor amin bo'lazim. Albatta, bu yutuqlar aholining banklarga bo'lgan ishonchi tobora mustahkamlibor borayotganidan dalolat beradi.

"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki Samarcand filiali ham zamonaviy axborot texnologiyalari bevosita foydalangan holda bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda ularning turini ko'paytirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ayni magsadda filial xodimlari viloyatning tuman va shaharlarida targ'ibot-tashviqot ishlarni olib bormoqda. Bunda, aholi o'tasida tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilayotgan kreditlari, ularning turlari va shartlari, kredit hujjalarni rasmiylashtirish jarayonlari hamda garov ta'minoti to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan fuqarolarga namunayli loyiylar taklif etilmoqda.

Xulosa o'rinda shuni aytilish joizki, "Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki Samarcand filiali aholi turmush darsajasini yaxshilash, istiqbolli loyihalarni ro'yobga chiqarish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mijozlarning talab va ehtiyojlarini qondirish, xususian, tadbirdorlik rivojlantirish, xususan, tadbirdorlik qilayotgan xotin-qizlarga va oilaviy tadbirdorlik subyektlariga samarali bank xizmatlari ko'rsatish yo'lda faol ish olib borishni rejlashtirgan.

Aziz XODJAYEV,

"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki Samarcand filiali boshqaruvchisi o'rinosari. Xizmatlar litsenziyalangan.

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdag'i "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son qaroriga muvofiq davlat va davlat ishtirokida korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

SAVDOLAR E'LON QILINADI

T/r	Obyekt nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumi yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	Bo'sh turgan savdo do'konini binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalish markazi Samarcand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Samarcand shahri, "Zulfiya" MFY, Ali Qushchi ko'chasi, 6-A" uy	0	86,75	582 684 000,0	28.07.2023 y.	28.07.2023 y.
2	Bo'sh turgan shoxobcha binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalish markazi Samarcand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Samarcand shahri, "Afrasiyob" MFY, "Siyob dehqon bozori" savdo majmuasi, 181-uy.	0,0025	24,32	102 381 000,0	28.07.2023 y.	28.07.2023 y.
3	Bo'sh turgan bino inshootlar	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalish markazi Samarcand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Nurobod tumani, "Amir Temur" MFY, Mustaqillik-1 ko'chasi	0,2	76,4	131 545 000,0	28.07.2023 y.	28.07.2023 y.
4	Bo'sh turgan ma'muriy bino	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalish markazi Samarcand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Oqdaryo tumani, "Loyish" MFY, Amir Temur ko'chasi, 13-uy	0,0886	245,85	934 498 000,0	28.07.2023 y.	28.07.2023 y.

Auksionda qatnashish tartibi to'g'risida:

li imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "E-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib, o'tkazilgan auksionlar ro'yxtanidan o'ziga kerakli obyektni tanlashi va u haqidagi tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujatida auksiondag'i LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolagan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining

"Shaxsiy kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabarini keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni:

Iqtisodiyotda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtida) ishtirokchilar "E-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini turgan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiriladi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadagma oshirilgan narxdan sobib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchilaridan birei belgilangan qadagma oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun yana vaqt beriladi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibib debi topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlari boshqarish agentligi Samarcand viloyati hududiy boshqarmasi davlat aktivlari sotishishga tayyorlash va sotish ishlarni muvofiqlashtirish bo'limi.

Ma'lumot uchun telefonlar: 66-233-96-64, 99-447-17-70 Faks: 66-233-73-54 "Facebook"dagi rasmiy sahifa: Sam Dav Aktiv Veb-sahifa: privatization.davaktiv.uz Internet tarmog'i idagi veb-sayf: samarcand@davaktiv.uz

DA'VOLAR BO'LSA...

Urgut tumanidagi "AZIZ AJFF" mas'uliyati cheklangan jamiyat (STIR: 308410741) o'z ustav fondini 31 700 000 (o'ttiz bir million yetti yuz ming) so'mdan 26 628 000 (yigirma olti million olti yuz sakkiz ming) so'mga kamaytirmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Urgut tumani Mergancha mahallasi.

Payariq tumanida xususiy amali

Bunga ancha yillar
bo'ldi. U paytlar bizza
suv muammosi yo'q edi.
Arab mamlakatlarda
bo'lib qaytgan tanishim
bir voqeani hikoya qilib
berdi.

- Ish yuzasidan Jidda shahri
ga borganimda, noqulay holatga
tushib qoldim, - deb boshladi
u hikoyasini. - O'sha yerdagi
hamkorlarimiz bilan tushlik uchun
shahar markazidagi tamaddi-
xonaga kirdik. Navbat bilan qo'i
yuvayotgan edik. Qo'llimi yuvib,
ortimda turgan kishi ham qo'i
yuvadi-ku, degan o'ya jo'mrakni
yopmasdan, stol tomon ketdim.
Shu payt nariroqda bizni kuza-
tib turgan oshxona xizmatchisi
yugurib kelib, mena norozigini
bildira boshladi. Menden keyin-
gi odam kelguncha qancha suv
oqardi, dedit uning e'tiroziga
bepisand. Xizmatchining battar
jahli chiqdi va ichkaridan oshxo-
na xo'jayinini boshlab keldi. Mez-
bon hamkorlarimiz bizni mehmon
ekanligimiz, Markaziy Osiyodan
- O'zbekistondan kelganimizni
aytganidan so'ng biroz o'zlarini
bosib olishdi. Ammo shunda ham
bu bahona bo'limasligini aytishdi.
Suv isrofiga bunchalar e'tiborsiz
ekanligimizdan taajjublandi.

Bu ne'matning

MUQOBILI YO'Q

Shu bir voqeaya menga hayo-
tim davomida unutilmas saboq
bo'ldi. Har qachon suv jo'mra-
gini ocharkanman, foydalanib
bo'lishim bilan uni yopishga
shoshaman.

Mutaxassislarining qayd etishi-
cha, 2000-yilgacha yurtimizda
kam suvli mavsum har 6-8 yilda
bir marta kuzatilgan bo'lsa, oxirgi
yillarda bu jarayon har 3-4 yilda
takrorlanmoqda. Bu esa suv-
ga bo'lgan ehtiyojning yanada

ortishiga olib keladi. Ichimlik suvi
muammosi jahon miqyosida ham
birinchida darajali tashvishlardan
bo'lib turibdi. Bugungi kunda
dunyoda jami aholining oltidan
bir qismi toza ichimlik suviga
muhtoj. Hozirda 500 million kishi
suv taqchilligi keskinlashgan
mintaqlarda, 2,4 milliard kishi
esa suv tozalash qurilmalari va
drenaj tizimi orzuligicha qolayot-
gan o'kalarda yashaydi. Yana
yigirma yildan keyin suv yetish-

maydigan o'lkalarda yashovchilar
soni olti baravarga ko'payib, uch
milliard kishiga yetishi taxmin
qilinmoqda. Sifatlari ichimlik suvi
yetishmasligi oqibatida jahonda
yiliga o'n million kishi kasallanib,
nobud bo'layotir.

Keyingi paytlarda maml-
katimizning birinchi prezidenti
Islam Karimovning bir intervyusi
ijtimoiy tarmoqlarda ko'p eslendi.
Bu o'sha paytda qo'shni davlat-
lar bilan bo'lgan suv muammosi
bilan bog'liq edi. Intervyuda
keyingi urushlarning ayrimlari suv
bilan bog'liq bo'lishi ta'kidlanadi.
Bu gaplar aytilganiga hali ko'p
bo'lmadi. Ammo bugun shunday
kelishmovchiliklar sodir bo'layot-
gani bu tashvishning naqadar
o'rinci ekanini bildiradi. Xususan,
Amudaryoning Afg'oniston hudu-
didiqni Eron Islom Respublikasi
o'rtasida ayni shunga o'xshash
kelishmovchilik sabab kichik har-
biy to'qnashuvlar yuz berdi. Bu
voqealar har bir kishini chuqur
o'ylashga undaydi. Qolaversa,
mamlakatimiz aholisini katta qis-
mining bandligi qishloq xo'jaligi –
agrar soha bilan bog'liq. Shusiz
ham ishsizlik muammosi yuzaga

Mulohaza uchun mavzu

kelayotgan bir paytda bu mu-
ammoning yanada bo'y cho'zishi
turban gap.

Bizga berilgan bu ne'matning
muqobili yo'q. Dunyoning juda
ko'p mamlakatlarda millionlab
odamlar toza ichimlik suviga
tashna, bir chevak suv uchun
janjal-mojarolar bo'layotgan
bir paytda toza ichimlik suvini
jo'mraklardan oqizib qo'ymoq-
damiz. Nega bunday desangiz,
qishda sovuqda jo'mrak muzlab
qolishini, yozda issiqni bahona
qilamiz. Suvni isrof qilishning
har xil ko'rinishlari bor. Aksariyat
kishilar tarvuz-qovun, ichimliklari
ni salqinlatish uchun ularning
ustidan soatlab ichimlik suvini
oqizib qo'yishni isrofdan boshqa
yana nima deyish mumkin? Toza
ichimlik suvini oqizib, mashinala-
rini yuvadigan yurtdoshlarimizni
har qadamda uchratasiz. Meva
yoki salqin ichimliklarni boshqa
yo'l bilan ham sovutish, mashi-
nani yuvish uchun chevladan
foydalanish, suvni tejab-tergab
ishlatish mumkin-ku.

Katta ehtimol bilan mana shu
"xizmat"larimiz sabab bugun
O'zbekiston aholisini suvni isrof
qilish bo'yicha dunyodagi kuchli
o'ntalikka kiradi.

Sulaymon MARDIYEV.

O'qing, qiziq

KICHIK LIKOPCHANING FOYDASI

Ovgatlanish odatini o'rganib, butun
dunyoga to'g'ri ovqatlanishni o'rgatgan
AQShning Kornel universiteti
professori Brayan Uonsink
ortiqcha ovqatlanmastlik uchun
kichik tarelkalarda ovqatlanishga,
ovqatlanayotib qayg'uli filmlni tomosha
qilmaslikka chagirdi.

2007-yilda olim "o'z-o'zidan
to'ladigan sho'rva" tajribasi uchun
Shnobel (nufuzli xalqaro mukofotga
parodiya) mukofotiga sazovor
bo'ldi: "Tubsiz kosa: nima uchun
vizual porsiya hajmi iste'mola
ta'sir qiladi". Tajriba ishtiropchilar
ikki guruhga bo'linib, biriga "o'zi
to'ladigan" idish berildi, boshqasi
ovqatni o'zi suzdi. Xullas, "Tubsiz
kosa" guruhidagilar qolganlarga
qaraqagan ko'proq sho'rva ichishdi.

Bu tadqiqot Uonsinking boshqa
ko'plab asarlari kabi tez orada ilmiy
jamoatchilik tomonidan tanqid qilindi.
Reytingda erishish uchun dunyodagi
eng ko'p tilga olingan diyetologlardan
biri jiddiy qonunbuzarliklarga yo'l
qo'ysi: noto'g'ri statistik ishlov va
soxtalashitirilgan ma'lumotlarni nashr
etish, shuningdek, ilmiy natijalarni
hujjatlashtirish va saqlash talablariga
rioya qilmagani aniqlandi.



ELEKTRON SIGARETALAR VA YURAK XURUJI

2019-yilda tamaki zararini
kamaytirish muxoliflari – San-
Fransiskodagi Kaliforniya
universitetidan Stenton Glans va
Dxarma Bxatta oddiy sigareta va
elektron sigareta birde yurak
xurujiqida qolishini mumkinligini
isbotlashga urinishdi.

Mutaxassislar tadqiqot
natijalarida bir nechta muhim
kamchiliklarni aniqladi. Misol
uchun, respondentlarning ba'zilari
ilgari oddiy sigaret chekishgan,
ba'zilari esa tajriba davomida buni
etirgan. Bu yurak xuruji
xavfini oshirishi mumkin, albatta.
Tadqiqotning boshqa ishtiropchilar
chekishini boshlashdan oldin
infarktni otkazgan. Ma'lumotlar
tadqiqotdan olib tashlandi va shu
bilan elektron sigareta va yurak
xuruji o'tasidagi bog'liqlik yo'qoldi.

IPV VAKSINASI, BEPUSTHLIK VA MIYA SHIKASTLANISHI

Journal of Toxicology and
Environmental Health jurnalida chop
etilgan 2018-yilgi tadqiqot inson
papillomavirusiga (IPV) vaksina
xavfini ma'lum qildi. Unda iqtisodiyot
va moliya professori Geyl Delong
vaksina ayollarning reproduktiv
qobiliyatiga zararli ta'sir ko'rsatishini
ta'kidladi. Tasdiqlash uchun Delong
25-29 yoshli amerikalik ayollar
ma'lumotlarini keltirdi va IPVga qarshi
emlanganlar emlanmaganlarga
qaranganda kamroq homilador
bo'lishini isbotlagan bo'ldi.

Ammo ekspertlar Delong o'z
tadqiqotida so'rov ishtiropchilar
gормонал контрацептив восталардан
фойдалананиниси олмаганини
аниqlashdi. Delong maqolasi
qaytarib olindi.

Internet ma'lumotlari asosida
G.XOLDOROVA tayyorladi.

Jazirama kunlarda qanday ishlashni bilasizmi?

Mehnat kodeksining 25, 276, 352,
359-moddalari hamda "Mehnatni muhofa-
za qilish to'g'risida" qo'yonunning 23-mod-
dasiga muvofiq, barcha korxonalarida
xavfsizlik va gigiyena talablariga javob
beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan
bo'lishi kerak. Qulay ish sharoitlari
yaratib berish ish beruvchining majburiyati
hisoblanadi.

Jazirama vaqtida binolarda microqliq
sharoitni yaxshilashga yordam beradigan
konditsioner, ventilyatsiya, quruq havoni
namlantirish uskulalari faoliyatini ta'min-
lash hamda ishlash imkonni bo'lmagan
taqdirda xodimlarning ish rejimini o'zgartirish
mumkin. Ya'ni, ularning dam olish
vaqtinasi ko'paytirish yoki ish vaqtini qisqartirish,
xodimlarni bepul toza ichimlik suvi
bilan ta'minlash choralar ko'riliishi lozim.

Yilning issiq davrida ochiq maydonlarda
bajariladigan ishlari havo harorati
34,2°C-36,0°C dan yuqori bo'lganda inson
sog'lig'i uchun o'ta xavfi hisoblanadi.
Mazkur holatda rejimi o'zgartirish, ish
vaqtini kunning salqin vaqtlariga ko'chirish
maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agarda xodim ochiq maydonada, jum-
ladan, qurilish maydonlarida, dalalarda
faoliyatini amalga oshirayotgan bo'lsa, ish
beruvchi tomonidan mavsumiy himoya
vositalari ajratilishi, ish rejimi o'zgartirilishi,
shuningdek, xodimlar bepul toza ichimlik
(mineral) suv bilan ta'minlanishi kerak.
Ammo bu davrda xodimning o'rtaча ish
haqi saqlab qolinadi.

Korxonadagi bunday ishlarning
ro'yxati va ularni bajarishda ish vaq-
tining muayyan muddati tarmoq (tarif)



Orifjon MIZOMOV,
O'zbekiston kasaba uyushmalari
federatsiyasi viloyat kengashini
yetakchi mutaxassis.

Qo'shni uyda yashovchi bu ayolni yaxshi taniyman. Duppera-durust oilasi
bor. Mahallada ishlab pensiyaga chiqqan. Lekin qayerga bormasin, kim
bilan suhabatlashmasin, doimo hayotdan, turmushidan noliyi. Arziman
narsalarini bahona qiladi. Shu sababli, keyingi paytlarda qo'shnilar
ham undan qochadigan bo'lishgan.

Amerikada yashovchi qizi zamonaviy
telefon yuborgan, ermagi shu. Ijtimoiy tar-
moqda fisqu fasodlarni aytib boshingizni
qotiradi. Ayrimlar "Alamzada bir kimsaning
ohu dodi bilan hayot yomon bo'lib qol-
masligi"ni aytib ko'rishdi. Lekin Nusrat opra
o'z bilganidan qolmaydi. Yo'zini boshqa
larda bilimli, aqlli ko'rsatmoqchi bo'ladi, bilmadim,
hatto besh kechagina televizorda
ko'rib, asl mohiyatini anglagan voqeani ham
butunlay boshqa nuqtai nazarda aytishdan
charchamaydi.

Xullas, bugun uyim oldidagi o'rindiqa
dam olib o'tirsam, ana shu ayol kelib qoldi.
Qo'chib ketishning iloji yo'q, avvaliga gaplariga
sabr bilan biroz qulqo tutdim: yana o'sha
nolish, o'sha fisqu fasod.

Toqatim tugab, suhbatdoshimni savolga
tutdim:

- Opa, farzandalar uyli-joylimi?
- Xudoga shukr, ikki qizim maktabda
ishlaydi, bi o'g'lim olsasi bilan Amerikada,
yana bittasi loyihiachi. Hammasi uyli-joyli.
Bitta nevaram uyda bizga qarashib turadi,
kolleja o'qydi.

- Xo'jayingiz nima ish qiladilar?
- Elektr ta'minoti korxonasida ishlaydi. Bu
yil pensiya rasmilayshirdi, lekin ishlayapti,
yaxshi mutaxassis-da.

- Sizga, oolangiza havasim keldi.
- Rahmat, singlim. Ha, aytganday, bolalari
yordamida erim bilan o'nta mamlakatga
sayohatga borib keldik, Amerikaga ham...

- O'h-hu, jahongashta ekansiz-ku, opa-
jon. Hayotningizga ko'z tegmasin...

Ochig'i, shu yerga kelganda o'zimni
ushlab tulormadim. Turmushi havas qilarli
bo'lsa-da, tag'in noligani nimasi? O'zi ni-
madan norozi bu ayol?

- Shunchalik yaxshi yashayotgan ekansiz,
zamonadan yana nega nolisyiz?

- Men nolimayman, singlim, faoliyatini
mizdag'i kamchiliklarni aytayman, xolos.

- Tushunmadim, qanaqa kamchilik! Mana,
atofimizni obodonchilik xodimlari
top-toza qilib qo'yishgan bo'lsa, davlat
xizmatlari hamma murojaatimizni beminnat
hal qilib bersa, idorama-idora yurib ovora
bo'imasak, biringchi qavatda do'konlar ishlab
tursa...

- Kecha yutubda ko'rdim, hokimiyat bir
fermerring yerini olib qo'yibdi. Yana bir
ayolning bolasi bilan ko'chada qolganini
ko'rsatishdi. Anavi qo'shnimiz Avargaga qarang,
har kuni mashina almashtiradi, qayer-
dan olyapti buncha pulni?

Suhbatdan ma'lum bo'ldiki, opa ped-
kollejni bitirgan, mahallada kotiba bo'lib
ishlab, pensiyaga chiqqan. Bu yaqin orada
gazeta, kitob o'qimagan, hatto televizor-

da axborotlarni ham kuzatmagan. Ammo
ovsinlar, sinfdoshlar, dugonalar "gap"idan
qolmagan. Hatto bozorga bormagan. Xullas,
jamiyatda bo'layotgan yangiliklardan xabar-
dar emas.

Shu sababli o'zimda bor va o'zim bilgan
ma'lumotlarni asosida jamiyatimizda bo'layot-
gan o'zgarishlarni tushuntirib berdim. Opa
har bir xulosamidan keyin "yo'g'-ey, men
bilmabman" yoki "qarang-a, xabarim yo'q
ekan", deb qo'yadi. Keyin uning aniq idda-
o'sha ham javob berdim.

- Fermenning yeri tortib olinmagan, bu
voqeani men ham ko'rdim. O'sha fermerr
ishni tashkil eta olmagan, yerning umrini
foydasiz o'tkazgan. Shuning uchun yoni-
dagi ilg'or, uddaburon fermerga qo'shilgan.
Ammo ikki fermerr o'rtasida chiqqan
arzimagan gap butun elga oshkor etilgan.
Ko'chada bolasi bilan qolgan ayol masalasi-
da ham adashyapsiz. Chunki uning uyi bor,
faqat qaynopasi bilan munosabati yomon
bo'lgani uchun uyiga bormayapti, hokimiyat-
dan alohida uy so'rayapti. Agar kelishmay
qolgan hamma oila a'zolriga alohida uy
berilaversa, unda oila nima bo'ladi, opajon?
Qo'shnimiz esa daryo bo'yida tosh mayda-
lagich korxona ochgan. Daromadi yaxshi,
negaki, qurilish hajmi ortyapti. Mahallam-
izdag'i bolalar sport maydonchisini ham u
o'z mablag'iga qilib berdi. Pul uniki, agar
imkon bo'lsa, xohlagan mashinasini minsin,
to'g'rimi?

Aytganday, opajon, mahallamizdag'i
don'kon egasi va sartaroshga ham o'rinsiz
e'tirozlar bildirayotgan ekansiz. Ular xususiy
tadbirkor, ishiga aralashishga hech kimning
haqqi yo'q, shuni bilasizmi?

Opening past tushganini sezdim. Ayrim
holatlarda nohaqligini tan oldi ham. Men
ham sal yumshadim.

- Endi opajon, bu yoshda shukrni o'rga-
ning, bironning o'miga o'zingizni qo'yib
ko'ring.

- Mayli, singlim, uzr, sizni ham bezovta
qildim...
- Iliqqina xayrashidik.